

**“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI
DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI**

Fayziyev Nozim Asfandiyorovich

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

e-mail: fayziyev@samdchti.uz

Annotasiya

Ushbu maqolada bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalar asosida multimediali taqdimotlar yaratish va ulardan foydalanib dars mashg‘ulotlarini tashkil qilish masalalari muhokoma qilingan.

Abstract

This article discusses the issues of creating multimedia presentations based on modern software tools and using them to conduct lessons in the subject of 'Informatics and Information Technologies' in general secondary education schools today.

Kalit so‘zlar: *dasturiy vosita, elektron qo‘llanma, gipermatn, ovoz, grafika, video, test, multimedia, animasiya, imitasion model, umumiy o‘rta ta‘lim, dasturiy vosita.*

Key words: *software tool, electronic manual, hypertext, sound, graphics, video, test, multimedia, animation, simulation model, general secondary education, software tool.*

Kirish. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan dars beradigan o‘qituvchilar dasturiy vositalar asosida tashkil etilgan dars jarayonida elektron doskadan yoki video proyektordan foydalanishi lozim, chunki bunday holda u bir vaqtning o‘zida sinf xonadagi barcha o‘quvchilar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Amaliyot va olib borilgan tajriba-sinov ishlari dasturiy vositaning ta‘lim jarayonidagi samaradorligini tasdiqlagan. Dasturiy vositadan foydalanib ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, u o‘quv jarayoniga ijobiy ta‘sir etishi mumkin.

Ma‘lumki, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda dasturiy vositalar asosida elektron qo‘llanmalar yaratish va ulardan foydalanish o‘quvchilar uchun fanni o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Yaratilgan yangi elektron qo‘llanma imkoniyatlarini o‘rgangan o‘quvchilarda boshqalar uchun ham

foydali bo'lgan bilimlari aks etgan yangi loyihalarni yaratish xoxishi paydo bo'ladi. Bunday holda o'qituvchi o'quvchilarga "elektron qo'llanma"ni yaratishni taklif qilishi mumkin. Bu albatta elektron qo'llanma yaratishdagi ilk qadam. Bu loyihani yaratishni amalga oshirish uchun turli dasturlar to'plami bilan ishlashga to'g'ri keladi. O'quvchilar tasvirni qayta ishlash, nutq va musiqani yozib olish, animasiyali effektlardan foydalana olish kabilarni bajara olishlari kerak. Ular uchun axborotni topish va tanlash usullari, ularni tartiblash muhimdir. Ularga mutaxassis va fan o'qituvchisi ko'mak beradi. Natijada dasturlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Fan o'qituvchisiga esa o'quvchi bilan ishlashning bu shakli uning mehnati o'sib kelayotgan yosh avlodga juda zarur ekanligi haqida ishonch beradi. Elektron darslik yaratish murakkab jarayon ekanligini e'tiborga olgan holda uni bosqichlarga bo'lib amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Elektron darslik yaratishning asosiy bosqichlari quyidagilar:

- manbalarni tanlash;
- muallif bilan shartnoma tuzish;
- mundarija tuzish;
- qismlar bo'yicha matnlarni qayta ishlash;
- gipermatnni elektron shaklga aylantirish;
- ovozli sohani ishga tushirish;
- multimediali soha uchun materil tanlash;
- kompyuter yordamini yaratish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Respublikamizda zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish va ta'limni axborotlashtirish vositalarini yaratish hamda ulardan foydalanishning nazariy asoslari bo'yicha M.H.Lutfillayev, A.A.Abdukodirov, U.Sh.Begimkulovlar izlanish olib borishgan. Ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning metodik masalalari, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha M.M.Abdurazakov, M.M.Aripov, N.I.Taylakov, G.Abilkasimova, A.X.Abdullayev, B.B.Mo'minov, H.O.Jo'rayev, M.A.Fayziyev, Q.T.Olimovlar tomonidan o'rganilgan. Multimediali o'qitish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash muammolarga doir mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridan S.A.Beshenkov, O.M.Gudireva, T.A.Gudkova, H.Yu.Postalyuk, Yu.A.Prozorova,

I.V.Robert, Ye.Ye.Smirnova, M.A.Surxayev, A.R.Taneyeva, N.D.Ugrinovichlar tomonidan nazariy jihatlarini tadqiq qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Multimediali elektron darslik (MED)ni yaratishda o'quvchilarga tushunarli, matnni ravon va qiziqarli, test, krossvordlar tanlashda ularning yoshi, fiziologik xususiyatlari hisobga olish lozim. Elektron darslik strukturasi, boblar va ularga tegishli mavzular bo'yicha bilimlar qisqa hamda xulosa qismi bilan bog'langan holda keltiriladi.

O'quvchilar erishilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash maqsadida MEDda savol va topshiriqlar, test sinovlari va krossvord keltirilgan. Masalan, elektron darslik yordamida o'quvchi o'z bilimlarini nazorat qilish, ya'ni o'quvchilar bilimlarini sinab ko'rish maqsadida test sinovlariga javob berishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik jarayon kechishining muhim shartlaridan biri darslarda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish hisoblanadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun mo'ljallangan ana shunday o'qitish texnologiyalaridan biri bu multimediali elektron qo'llanmalardir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'limni axborotlashtirish sharoitida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning asosiy maqsadi axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan amaliy foydalanish ko'nikma va malakalarini, axborotni kompyuterda qayta ishlash usullarini, ijodiy anglash va mantiqiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish uchun o'quvchilarga shart-sharoit yaratish, ularning bilish faoliyatini rivojlantirishdan iborat.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish bo'yicha asosiy muammolardan biri - bu o'quvchilarning axborot texnologiyalarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini faollashtirishdan iboratdir. "Informatika va axborot texnologiyalari" darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bu eng avvalo o'quv materialini multimediali va interaktiv ko'rinishda taqdim etishdir. Bunday o'quv materialini quyidagi ko'rinishlardan biri orqali taqdim etilishi mumkin:

- taqdimot (o'quv materialini namoyish etish, o'quvchilarga o'quv materialining eng muhimlarini mustaqil o'rganishni taqdim etish);
- kompyuterli o'yin;
- o'quv materialining grafik namoyishi
- video va multiplikasion filmlar.

Tahlil va natijalar. “Informatika va axborot texnologiyalari” darslarida o‘quvchilar faoliyatining amaliy yo‘nalishi ustivor hisoblanadi. “O‘qitish-o‘qish” jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’sirlashuvi ro‘y beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchining ko‘z o‘ngida hamma narsani biladigan shaxs sifatida gavdalanadi. Ammo, bilish jarayoni va kashfiyot ta’lim berish doirasida qoladi. Chunki, o‘qituvchining xoxishiga bog‘liq bo‘lmagan holda bilimlarni uzatish jarayonida o‘quvchining ishonchi, motivasiyasi, hayotiy konsepsiyasi ishtirok etadi.

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, ish beruvchilar hamda ta’lim bozori subyektlarini bir maqsadda birlashtirish, pirovard natijada raqobatbardosh kadrlar tayyorlash – bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Qachonki, ishlab chiqarish hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb etilayotgan mutaxassislariga berilayotgan bilim har ikki tomon manfaatlarini hisobga olmas ekan, sifat haqida so‘z yuritmasa ham bo‘ladi. Masalan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitilishiga to‘xtalsak. Hozirgi kunda 1-sinflar va 5 sinfdan tortib 11-sinflargacha bu fan o‘qitiladi. Texnika va texnologiyalar soat sayin o‘zgarib, yangilanib, takomillashib bormoqda. Barchasini birdan qamrab olish mushkuldir. Lekin “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda ham multimediali elektron qo‘llanmalarni qo‘llash orqali ijobiy natija olish mumkin.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida dars mashg‘ulotlarini qanday tashkil qilinsa o‘quvchilarda bu fanga nisbatan o‘qishga motivasiya paydo qilish mumkin degan savol tug‘uladi.

Bizning nazarimizda bugungi kunda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalar asosida taqdimotlar yaratish va ulardan foydalanib dars jarayonini tashkil qilish uning samaradorligiga erishish mumkin. Bu degan so‘z “Informatika va axborot texnologiyalari” faninig har bir mavzulari bo‘yicha dasturiy vositalar asosida multimediali (ovoz, grafika, video, test va imitasion modellar) ko‘rinishdagi taqdimotlar yaratish zarur. Masalan “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidagi mavzular bo‘yicha multimediali taqdimotlar yaratish va ular yordamida dars jarayonini tashkil qilish lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda bugungi kunda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalar asosida multimediali taqdimotlar yaratish va ulardan foydalanib dars mashg‘ulotlarini tashkil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lutfullayev M.X. Multimediali didaktik vositalar asosida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish //Ta'lim va tarbiya. –Toshkent: -2003-y. -№3-4. B. 55 - 57.
2. Lutfillayev M.H., Fayziyev M.A. Multimediali elektron darsliklarda o'qitish metodikasi // Uzluksiz ta'lim. –Toshkent, 2002-y. -№4. -B. 79-81.
3. Lutfillayev M.H. Elektron darsliklardan o'quv jarayonida foydalanish // Xalq ta'limi jurnali. -Toshkent: -2003-y. -№4. -B. 92-93.
4. Lutfillayev M.H. Multimediali elektron darsliklar yaratish talablari // Boshlang'ich ta'lim. –Toshkent: -2003-y. -№4. -B. 20-21.
5. Xasanovich, Prof L. M., et al. "Development of Computer Simulation Model Develops Creative Thinking of the Student." *JournalNX*, vol. 7, no. 03, 2021, pp. 167-171.
6. Asfandiyorovich F. N. Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Manuals //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 16. – C. 42-45.
7. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2022). TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI DOIR KOMPYUTER IMITATION MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 273–278.
8. Fayziyev, N. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO'LLANMA ASOSIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI ANIQLASH. *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*, 1(01). Retrieved from <http://ojs.qarshidu.uz/index.php/con/article/view/175>
9. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich, & Toxirqulov Zufar Jurabek o'g'li. (2023). Registering and Creating Presentations on prezi.com. *World of Semantics: Journal of Philosophy and Linguistics*, 1(1), 66–71. Retrieved from <http://wos.semanticjournals.org/index.php/JPL/article/view/11>
10. Fayziyev N. THE IMPORTANCE OF IMPLEMENTING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 10. – C. 172-175.
11. Asfandiyorovich F. N., O'g'li T. Z. J. ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA XORIJIY TILLARGA OID TAQDIMOTLAR YARATISH //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 19. – C. 359-363.

12. Asfandiyorovich F. N. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI TAKOMILLASHTIRILGAN METODIKA ASOSIDA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 5. – С. 198-200.

13. Asfandiyorovich F. N. TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO'LLANMALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH //ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИДАГИ ЯНГИ ТАРИХИ ВА ФАЛСАФИЙ ТАФАККУРИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ. – 2022.